

**QASHQADARYO VILOYATIDA 2018 YIL YANVAR OYIDA XIZMATLAR
SOHASINI RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI**

2018 yil yanvar oyida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 485,8 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan qishloq joylarida 125,0 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 25,7 % ni tashkil qildi. 2017 yil yanvar oyiga nisbatan o'sish 102,7 % ni tashkil etdi.


**2018 yilning yanvarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2017 yil yanvarga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan ulushi, % da</i>
Jami xizmatlar	485,8	102,6	100,0
<i>shu jumladan xizmat turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	33,2	114,6	6,8
moliyaviy xizmatlar	52,7	103,8	10,8
transport xizmatlari	112,9	101,0	23,2
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	108,9	100,9	22,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	15,2	104,4	3,1
savdo xizmatlari	167,1	100,8	34,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	15,6	101,4	3,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	10,5	100,2	2,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	4,7	108,9	1,0
ijara va prokat xizmatlari	13,1	104,3	2,7
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	17,9	101,9	3,7
boshqa shaxsiy xizmatlar	19,1	102,0	3,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar	5,0	100,3	1,0
boshqa turdagi xizmatlar	18,9	113,7	3,9

2018 yil yanvarda ishlab chiqarilgan jami xizmatlarning 2017 yil yanvarga nisbatan o'sish sur'ati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (114,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (108,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (104,4 %), ijara xizmatlarida (104,3 %) yuqori bo'ldi.

(1-rasm)

2018 yil yanvarida ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 34,4 %), transport xizmatlari (23,2 %), moliyaviy xizmatlar (10,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. (1-rasm)

Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi bo'limi
Tel. 75 221-44-32